



TEKNOLOGIYA O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Hamdamova N.M.

*Buxoro davlat univeristeti doktranti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Tayanch so'zlar: to'g'ri chiziq, burchak koeffitsiyenti, parallel, perpendikulyar, umumiy tenglama.

Ключевые слова: прямая, угловой коэффициент, параллель, перпендикуляр, общее уравнение.

Key words: straight line, slope, parallel, perpendicular, general equation.

O'qituvchining axborot olish kompetentligi tayanch kompetentliklar sirasiga kiradi va uning kasbiy faoliyatidagi zaruriy bo'g'in hisoblanadi [1]. Ma'lumki, real ob'ektlar (televizor, televizor, magnitofon, telefon, faks, kompyuter, printer, modem) va axborot texnologiyalari (audio- va videoyozuv, elektron pochta, OAV, Internet) vositasida axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish, tanlab olish, qayta ishlash, saqlash va uzatish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Bu kompetentlik bo'lajak o'qituvchining o'quv predmetlari va ta'lim sohasida, shuningdek, atrof olamdagi axborotga nisbatan faoliyat ko'nikmalarini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda, o'qituvchining kasbiy kompetentliklari ko'lami anchagina keng.

Pedagogning axborot olish kompetentligi axboriy muhit bilan o'zaro aloqadorlikdagi bilim, ko'nikma, malaka va refleksiv ko'rsatmalarning kompleksi mavjudligida aks etadi [2]. Axborot olish kompetentligi – shaxsning kasbiy ahamiyatli integrativ sifati bo'lib, uning axborot olamida mo'ljalni to'g'ri olish va faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar majmuini o'zlashtirish darajasi bilan tavsiflanadi.

Ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili oliy ta'lim tizimida mehnat ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog'liq [3]. Ushbu jarayon mehnat ta'limi



o'qituvchisini tayyorlash mazmunini asoslash va kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasini yaratishda muayyan o'zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Jumladan, tikuvchilik buyumlarini loyihalashda bo'lajak texnologiya ta'lim o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish muammosiga ilmiy pedagogik qiziqishning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq tavsiflanmaganligi, uni rivojlantirish mezonlari va mexanizmlarining nazariy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, aytish mumkinki, kadrlar tayyorlash jarayonini tashkil etish va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosi bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsada, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi bo'yicha tikuvchilik buyumlarini loyihalashda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosi yetarli darajada ishlab chiqilmagan, bu esa tikuvchilik buyumlarini loyihalashda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishda innovatsion o'qitish metodlari va texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi [4].

Texnologik ta'limi yo'nalishining o'ziga xos xususiyati yana shundan iboratki, uning mazmunida barcha ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy texnik va boshqa fanlar mazmunan integratsiyalashgan xolda amaliy tadbig'ini topadi. Shu jihatdan olib qaraganda texnologik ta'lim o'qituvchisi turli fanlar mazmunini o'zida mujassamlashtiruvchi (integratsiyalovchi) mutaxassis hisoblanadi. Chunki, texnologik ta'lim amaliyotini fan-texnika yutuqlari va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalaridan ajralgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Zamonaviy ishlab chiqarish jixozlari, mexanizm va mashinalarning tuzilishi, ishlash tartibini, bajaradigan texnologik jarayonlarning kechishini muayyan qonuniyatlarga asoslanib tushuntirilmog'i lozim.

Texnologik ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini axborotlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi: texnologik ta'limida o'quv-metodik ishlarni tashkil etish; texnologiya ta'limi o'qituvchisi va uning rolini o'zgartirishga bo'lgan talablarni ortishi; axborot resurslarining mumkin bo'lgan hajmining to'satdan ortishi; axborot xizmati ko'rsatishning ahamiyati o'sishi, ayniqsa, ta'limiy va ilmiy harakterdaligi; texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda virtual stendlar va laboratoriyalardan foydalanishning ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi; dasturiy ta'minotlarning yaratilishi asosida bo'lajak o'qituvchilarda mashg'ulotlarni yaqqol tasavvur qilishlariga imkoniyat yaratilganligi va boshqalar.

Hozirgi vaqtda mavjud ta'lim platformalarini tahlil qiladigan bo'lsak, ular orasida texnologik ta'lim yo'nalishiga mos bo'lganlarini juda ham uchratish mumkin [5]. Texnologiya ta'lim yo'nalishi o'quv reja va fan dasturlarini rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim muassasalaridagi mazkur yo'nalishi me'yoriy hujjatlar asosida tuzishga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa mashg'ulotlarda bo'lajak o'qituvchilarni sohadagi fan-texnika yangiliklariga doir o'quv materiallarni egallashlariga erishilmoqda. Bunday vazifani amalga oshirishda ta'lim platformalari muhim o'rin egallaydi. Quyida biz bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi bir nechta ta'lim platformalariga to'xtalib o'tamiz.

Evelyn Wood - Tikuvchilikni endi boshlovchilar uchun tikuvchilik darslari ushbu YouTube kanalida bepul taqdim etiladi. Video foydalanuvchiga butun jarayonni ko'rsatib beradi. Bir nechta videolarda o'qituvchi turli xil kiyim uslublarini tikishini ko'rsatadi.


Ushbu videolarni tomosha qilgandan so'ng tikuvchilik kasbi bilan shug'ullanish mumkin bo'ladi. Video darslarda tikuv mashinasi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish videolari ham mavjud.

1-rasm. Evelyn Wood YouTube kanalidagi sahifasi

English Tailor – tikuvchilikni o'rganmoqchi bo'lgan foydalanuvchilarga kerakli jihozlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan bo'lib, foydalanuvchilar instruktordan erkaklar kiyimi, bo'yinbog' va shim tikishni o'rganishi mumkin (2-rasm).



pishirishni o'rganishlari mumkin, shuningdek, o'z qo'llari bilan turli buyumlar yasashlari mumkin.



4- rasm. Good Housekeeping kanali

Bu kanalda ajoyib o'qituvchi tomonidan o'rgatiladigan oddiy tikish bo'yicha onlayn darsliklar ham mavjud. Ushbu kanal kuzatib borish oson bo'lgan onlayn tikuvchilik kursini izlayotgan foydalanuvchilar uchun juda qulay va tekin kontentni taklif etadi.

Farmhouse on bone – ushbu YouTube kanali Boondagi fermada turli tikuv loyihalarini o'rgatadi (5-rasm). Fartuk, chaqaloqlar uchun kiyimlar, pardalar va boshqa tikuvchilikka oid bo'lgan kiyimlarni bichish va tikish kabilarni o'rgatuvchi kanallardan biri hisoblanadi.



5-rasm. Farmhouse on bone kanali



Har bir darsning o'tish darajasi eng yuqori darajada hamda intruktor tomonidan barcha kerakli materiallarni taqdim etadi. Bundan tashqari, texnikaning turi va uni ta'mirlash kabi ma'lumotlarga ham ega bo'lish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining texnologik ta'lim yo'nalishi talabalariga majburiy fanlar mashg'ulotlarida ta'lim platformalarini qo'llash bo'yicha to'plangan tajribalarni o'rganish, tahlil etish va taqqoslash, o'quv jarayonida qo'llaniladigan vizual dasturiy vositalar, ta'lim platformalarni fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yaratish, uni o'quv jarayonida samarali qo'llash bo'yicha muayyan qoidalar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish ehtiyoji mavjud [6]. Bu o'z navbatida, umumkasbiy tayyorgarlik fanlarini o'qitishda foydalanish uchun mo'ljallangan kompyuterli o'quv dasturlarini tasniflash mezonlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Hozirgi davrda yoshlarning bilim olish motivatsiyalarini shakllantiruvchi mexanizmlarni va o'qitishning yangi shakl, zamonaviy metodlari orqali ularning bilish jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish, ulardagi kasbiy kompetentlikni shakllantirish hamda indikatorlar tizimi orqali ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib, amalga joriy etish metodlari mavjud bo'lib, aynan mana shular uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalashni, ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga xizmat qiladigan ta'sirchan choralarni ko'rishni taqozo qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ijodkorligini shakllantirishda ularning pedagogik hamda ishlab chiqarish amaliyotida muammoli vaziyatlarida aniq qaror qabul qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlar bo'yicha axborotlar olish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun fanlararo o'zaro aloqadorlikka erishish asosida muammoli vaziyatli topshiriqlarni ishlab chiqish va uni tizimlashtirish, pedagog kadrlar tayyorlash tizimi sifatini oshirishda ta'limning yangi shakllaridan foydalanish, fundamental, xususan, pedagogik va texnik bilimlarni o'zlashtirishda fanlararo uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, pedagogik fanlarning gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, matematika va tabiiy fanlar hamda umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bilan o'zaro aloqasi ko'p qirrali muammo bo'lganligi sababli nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asoslashni taqozo etadi [7].

Bo'lajak texnologik ta'lim yo'nalishi o'qituvchisi kasbiy kompetentligi egallagan nazariy bilim, ko'nikmasini doimiy o'zgaruvchan sharoitlarda qo'llay olish, bashorat qilish, ijodkorlik ishlarini olib borish, ratsionalizatorlik qobiliyatiga ega bo'lish, tashkiliy-texnik muammolar va dalolatnomalarni nostandart vaziyatlarda faol yechimini topa olish, o'z-o'zini baholash va o'z-



o‘zini rivojlantirishga tayyor turishi bilan belgilanadi. Bu xususiyatlar bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining kompetentligini qanday darajada rivojlanganli belgilab beradi.

Adabiyotlar:

1. Зенкина С.В. Информационно-образовательная среда как фактор повышения качества образования // Педагогика– 2008.– 268 с.
2. Madiyarova S.A. va boshqalar Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Iqtisodiyot-moliya, 2009. – 256 b.
3. Елегина В.С., Похлебоев С.М. Компетентный подход к организации обучения студентов в педагогическом вузе Фундаментальное исследование. – №3. – 2012. – С. 24-25
4. Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении. Научно–методическое пособие. Издательство Института образования человека, 2013. – 73 с.
5. Lutfillayev M.H., Sh.A.Abdullaeva., M.T.Shodmonqulov. Zamornaviy ta’limda raqamli tizimlarni qo‘llash: Filololgiya va pedagogika sohasida zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillari // Toshkent. 2020. –B. 121-127.
6. Umarova F.A. Dizayner-modelyerlarni tayyorlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalaridan foydalanish // Markaziy osiyo ijtimoiy tadqiqotlar jurnali №1, 2020 B34-44
7. N.A. Muslimov, Sh.S. Sharipov, O.A. Qo‘ysinov. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash: Darslik / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. - 456 b.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida texnologik ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirishda ta’lim platformalaridan foydalanish imkoniyatlari bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются возможности использования образовательных платформ для развития информационной компетентности преподавателей направления технологического образования в высших учебных заведениях.

SUMMARY

In this article, examines the possibilities of using educational platforms to develop the information competence of teachers of technological education in higher education institutions.